

---

## JURNALIST VA BLOGERLAR “AMIRA TEKSTIL” KORXONASIDA HAM BO‘LISHDI

Ishtirokchilar korxonada tekstil va trikotaj mahsulotlarini ishlab chiqarish liniyasi hamda poyabzal ishlab chiqarish jarayonlari bilan yaqindan tanishdilar.

Korxonada asosan ayollar, erkaklar, bolalar kiyim-kechaklari va poyabzallari ishlab chiqarilib, mahalliy bozorlarga, Germaniya, Rossiya hamda qo‘shni respublikalarga eksport qilinmoqda.

Press-turda jurnalist va blogerlarga ishlab chiqarilayotgan tayyor kiyim-kechak mahsulotlari namoyish etilib, korxonada faoliyati tanishtirildi.

2023-08-17 18:39:59